

МУГАЛЛИМ ХАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



ISSN 2181-7138

№ 4 2021 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Өсербай ӨЛЕҰОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРТАШЕВА

Шөлкемлестириўшилер:

**Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириў
Министрлиги, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы**

Өзбекстан Республикасы

**Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сөз хәм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00**

**e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

Журналға келген мақалаларға жууап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Мугаллим хәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген маглыўматларға автор жууапкер.

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ӘДЕБИЯТ

Ergashova M., Ergashev Sh. Verbal assotsiatsiyalarning matn hosil qilishdagi oʻrni	4
Suyunov M. Adabiyot darslarida integratsiyadan foydalanish yoʻllari	8

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Исроилова Р. Танкидий фикрлаш лойиҳалаш жараёнида ўқувчиларни фаоллаштириш мезони сифатида	13
Амонов А. Малака ошириш тизимида чет эл ёндашувларининг хусусиятлари	19
Қосимов Ш. Бўлажак касбий таълим ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш	25
Rasulov A.N., Vafoeva G.B. Oʻzbekistonni xalqaro reytinglardagi koʻrsatkichlarini koʻtarishning tarixiy rivojlanishi	35
Toshov M.J., Xurramov K.M. Yangi Oʻzbekiston sharoitida uzluksiz taʼlim muammolari va pedagogika fani taraqqiyoti istiqbollari xususida	38
Abdullayeva G.S. Eshitishda nuqsoni bor talabalarni inklyuziv taʼlim sharoitida oʻqitishning oʻziga xos xususiyatlari	42
Матназарова К.О. Талабаларнинг касбий фаолиятини ривожлантиришда ишбилармонлик ўйинларидан фойдаланиш	46
Атажанова Р.Р. Развитие способности креативного мышления младших школьников на уроках изобразительного искусства	49
Эгамбердиева Ш. Д., Эгамбердиева Ф.О. Коммуникативный аспект рекламного дискурса	52

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУЎХИЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Халмухамедова М.А. Нақшбандия тариқати воситасида касбий компетентликни такомиллаштиришни амалиётда татбиқ этиш	57
--	----

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Qodirova Sh.T. Baʼzi irratsional funksiyalarni integrallash usullari	61
Joʻlanov D.Q., Namozov J.S. Matematikani oʻqitishda mustaqil ishlarni tashkil etishning didaktik yoʻnalishlari	64

БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Abzalomova G.Sh. “Mishel de Montening “Tajribalar” asarida “oila tarbiyasi fazilatlarini tushunchasining oʻzbek tilida ifodalanishi”	71
Jurayeva G.T., Najimova A. I. Boshlangʻich sinf oʻqituvchisini tayyorlashda matematikani oʻqitish uchun vazifaviy yondashuv	76
Бегимкулов О.Ж. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida harakatli oʻyinlarni bolalar yoshiga mos holda tanlash va oʻtkazish	82
Турниязова М.У. Формирование познавательного интереса младших школьников на уроках русского языка	85

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХӘМ СПОРТ

Ниязов А.Т., Жуманиязов Қ.Т. Спорт гүресинде оқыту ұсылының тийкарлары	89
Utegenov J.J., Turdimuratov J.A. Student-jaslardín ruxiy hám dene mádeniyatín rawajlandırıw máseleleri	94
Турдымуратов Ж.А. Жеңил атлетика шынығыуларында оқытудың инновациялық усылларынан пайдаланыу	98
Ro'zmetov A.T. Inson organizmini o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	105
Мирзаев А. Maktabgacha yoshdagi bolalar hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasini takomillashtirish muammolari	108
Шарипова Қ.А. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини спорт мураббий асосида касбий фаолиятга тайёрлаш технологиялари	111
Исаков Р.Ш. Ёш спортчининг мусобақа олди психологик тайёрлаш жараёnlари	116
Ахмедов Ғ. Таълим -тарбия жараёnlинида индивидуал таълимнинг педагогик асослари	117
Ташпулатов Б.Б. Ўқитишни модулли ташкил этишининг афзалликлари ва унда тренажёрларнинг ўрни	120
Рўзметов Р.Т., Дехканов Ж. Узунликка сакровчиларни машгулот жараёnlида тезкорлик-куч сифатларини ривожлантириш услубияти	125
Пўлатов Л. Ёш таэквондочиларнинг хужум ва химоя ҳаракатларини такомиллаштириш	130
Дехқонов Ж.М. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni jismoniy tarbiya sifatleri hamda estetik xususiyatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlarni o'rni va amaliy ahamiyati	134
Болтаев А., Қўчкаров Б. Спорт малакаларига ўргатиш ва уларни такомиллаштиришда тактик-стратегик маълумотлардан фойдаланиш устуворлиги (волейбол мисолида)	137
Котлов Е.В. Теоретические основы профессиональной педагогической компетентности будущих преподавателей физической культуры	142
Котлов Е.В. Психологические условия формирования специальной готовности спортсмена	144
Ахмедов Г. Значение информационно-коммуникативных технологий на уроках физической культуры	148
Бегимкулов О.Ж. Значение общеразвивающих упражнений	151
Исаков Ш.М. Непрерывное совершенствование занятий по физической культуре в образовательных заведениях Узбекистана	156

5. Sh.Aminjanov. Jismoniy madaniyatning fiziologik asoslari fanidan ma'ruzalar matni. S., 2003.
5. G'.Azimov., Sh.Sobitov. Fiziologiya. Jismoniy tarbiya institutlari uchun o'quv qo'llanma. T., O'zDJTI nashriyoti., 1996.
6. Fiziologiya cheloveka. Shmidta I G.Tebesa. M, Mir, 1996.
7. O.G.Alyaviya, A.N.Qodirov, Sh.Hamroqulov., E.Xalilov. Normal fiziologiya. Toshkent, Yangi asr avlodi. 2007
8. Fiziologiya serdechno-sosudistoy sistemy. D.Morman, L.Xeller. SPb, izd. «Piter» 2000 g. 250 s. per.sang.
9. Stuart J, Foks. Human physiology.WKB Oxford-England. 1993.
10. www.Ziynet.uz.
11. www.bestreferat.ru.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya odam organizmning normal o'sishi rivojlanishida, qad-qomadning shakllanishida muhim rol ekanligi va muntazam ravishda mehnat, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish natijasida ilgari o'zlashtirilgan harakatlar asosiy turlarini yanada takomillashtirish, sport mashqlarining mustaqil metodikasi bo'yicha bilimlarini oshirishda, jismoniy mashqlarni tanlash va bajarish malakasini shakllantirishda, harakatlar sifati, ularni analiz qilish yuzasidan o'z-o'zini kuzatish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье отмечается, что физическая культура играет важную роль в развитии нормального роста человеческого организма, формировании кадра, а также в дальнейшем совершенствовании основных видов действий, ранее освоенных в результате систематического занятия трудом, физической культурой и спортом, повышении знаний по независимой методике спортивных упражнений, формировании квалификации отбора и выполнения физических упражнений, качестве действий, их анализе.

SUMMARY

This article notes that physical culture plays an important role in the development of the normal growth of the human body, the formation of the frame, as well as in the further improvement of the main types of actions previously mastered as a result of systematic occupation of labor, physical culture and sports, increasing knowledge of the independent method of sports exercises, the formation of qualifications for selection and performance of physical exercises, the quality of actions, their analysis.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR HAMDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING JISMONIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Мирзаев А.

ЎзМУ Спорт менжмент кафедраси доценти

Таянч сўзлар: мактабгача ёшдаги болалар, бошлангич синф ўқувчилари, жисмоний тарбияни такомиллаштириш, спорт, ўқув муассасаси, гимнастика, ҳаракат.

Ключевые слова: дошкольники, учащиеся младших классов, усовершенствование физкультуры, спорт, учебное заведение, гимнастика, движение.


Key words: preschoolers, primary school students, physical education improvement, sports, educational institution, gymnastics, movement.

O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonunida «Maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, talabalarining ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratish qayd etilgan.

Mualliflar fikricha, bolalar hayotining uchinchi va to'rtinchi yillari bola harakatga qarab rivojlanadi. Bu davrda bolalarda ko'ptokni ilib olish irg'itishga o'xshash harakat ko'nikmalari, yugurish, sakrash, gimnastika, narvonga chiqishga o'xshash harakat ishtiyoqlari hosil bo'la boshlaydi [1].

Darhaqiqat bola oiladan to'g'ri o'quv muassasasiga (bog'chaga, maktabga, akademik

litsey va kasb-xunar kollejiga) kelar ekan, albatta oiladagi tarbiya bolaga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Oila kun tartibida jismoniy tarbiyaning o'rni, bolalar jismoniy tayyorgarligi va harakat faolligini o'rganish maqsadida Toshkent shaxri Chilonzar, Uchtepa, Yunusobod tumanlarida joylashgan bir qancha maktabgacha ta'lim muassasa va umumta'lim maktablari (1-4 sinf o'quvchilari) tarbiya oluvchi bolalar va o'quvchilar ota-onalariga (150 ta) so'rov varaqasi tarqatilgan edi. Ulardan (150 ta) so'rov varaqalari to'ldirilib olindi va taxlil qilindi. So'rov varaqalari orqali ularning jismoniy tarbiyaga bo'lgan munosabati, bolalarning oilada rivojlanish muxiti to'g'risida quyidagicha salbiy hamda ijobiy ma'lumotlarni bildirishdi. So'rov-varaqasidagi (1-gistogramma)



1. Farzandingiz o'quv muassasidan so'ng jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadimi?», - degan savolga 75 foiz ota-onalar farzandlarining JT va Sport to'garaklarida qo'shimcha shug'ullamasliklarini bildirishgan, 20 foiz ota-onalar farzandlarining har xil sport turlari bilan shug'ullanishlarini ko'rsatishgan. Shundan 8 foizi suzish bilan shug'ullanishlarini ma'lum qilgan. Agarda, bu holat reyting tizimi asosida qaralsa, 20 foizdan past bo'lib, «qoniqarsiz» baxolanadi.

2. Farzandingiz ertalabki badan tarbiyani har kuni muntazam bajaradimi?», - degan savolga ota-onalarning 60 foizi shug'ullanmasliklarini, shu jumladan, farzandlarining 12 foizi umuman shug'ullanishni «hoxlamasliklarini», 7 foizi «qiziqmasliklarini», 21 foizi «vaqti yo'qligini», - bildirganlar. Bu holat ham judazm achinarlidir.

3. Farzandingizning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishiga nima halaqit beradi?», - degan savolga ota-onalarning 38 foizi moddiy tomondan qiynalishligini, 30 foizi hohlamasligini, 32 - vaqti yetishmasligini ko'rsatishgan. 4. Farzandingiz qaysi sport turi bilan shug'ullanishini istardingiz?», - degan savolga 40 foiz ota-onalar suzish turini, 17 foizi futbol, gimnastika 28%, tennis 10%, 5 %, kurash turlarini ko'rsatishgan.

Navbatdagi 5. Farzandingiz sog'lom bo'lib yetishishi uchun umumta'lim maktablarda qanday pedagogik sharoitlar yaratilishini istardingiz?», - degan savolimizga ota-onalarning 45 foizi alohida sport xonasi va suv havzasining bo'lishni 55 foizi ota-onalar sport maydonchalari va yetarlicha sport anjomlari bo'lishni istaydilar. Shu bilan bir qatorda ota-onalarning 90 foizi (6 savolga) maktablarda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mashg'ulotlarni mutaxassis olib borishi shart, deb sanashsa, 10 %, ota-onalar mutaxassis emas o'qituvchilarni mashg'ulot o'tishligiga befarq bilan qaraydilar

Pedagogik kuzatishlarning ko'rsatishicha, ko'p maktablarda jismoniy tarbiya darslari katta sinflarga mo'ljallangan sport zallarida o'tkaziladi yoki o'tazilmaydi. Bunday zallar ayrim maktablarda o'quvchi-bolalar yoshiga munosib sport anjomlari bilan bezatilmagan. Lekin, ko'pchilik maktablarda mayda sport buyumlaridan (bayroqchalar, keglilar, kublar, gardishlar, tayoqchalar va shu kabilardan) foydalanilsa, ayrim maktablarda shular ham topilmaydi. Umumta'lim maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun asosiy sport maydonchalari bo'lsa ham, ular yetarli darajada bezatilmagan (sog'lomlashtirish shaharchasi, yugurish yo'lkalari, sakrash, iring'itish uchun ajratilgan joylar va hokazolar).

Biz olib borgan so'rov varaqasi natijalaridan shunday yakun yasash mumkinki, jismoniy tarbiya bo'yicha dasturni shunday tuzish kerakki, u ota-onalar, tarbiyachilar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va o'quvchi-bolalarda jismoniy tarbiyaga bo'lgan qiziqish darajasini oshirsin. Ushbu ilmiy tasdiqlangan dastur har bir bolaning idividual xususiyatlarini xisobga olgan holda sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jaryonni ularning jismoniy rivojlanishi, funksional tayyorgarligi, umuman, bolalar salomatligi to'g'risidagi ma'lumotlarni yaxshilashga yo'naltirilgan, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirib, turli-tuman sog'lomlashtirish vositalaridan foydalanish uchun ko'maklashsin

Natijalar shunday xulosa qilishga imkon beradiki, Toshkent shaxri bolalarining bog'cha davridagi harakatlari barcha guruhlarda o'zga shaharlik tengqurlaridan orqada qolib kelmoqda, kun tartibida o'lganganda o'rtacha xisobda 2-3 ming qadam harakatlari kamdir [2], [3].

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatida va ayniqsa yosh tana a'zolarini to'g'ri o'stirish, harakatchanlikni rivojlantirishda jismoniy mashqlar, turli harakatli o'yinlar, noan'anaviy asbob-uskunalaridan maqsadli foydalaniladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar jismoniy tarbiyasini muvaffaqiyatli olib borish, jismoniy tarbiya jarayonida estetik, gigiyenik va pedagogik talablarni hisobga olgan holda sport anjomlari, sport buyumlari, inshootlarni tanlash, ularni qo'llash hamda yig'ish va joylashtirish lozimligi bir qancha olimlarning ishlarida ko'rsatilgan.

1-4 sinf o'quvchilarida mashg'ulot olib boruvchi jismoniy tarbiya o'qituvchilarning so'rovnomaga bergan javoblari (2-gistogramma)

1. Maktabingizda 1-4 sinf o'quvchilari jismoniy tarbiya fanini fan o'qituvchisi olib boradimi? Ha- 48%, yo'q-12%, qisman-40%.


2. Siz ta'lim berayotgan maktabda (1-4 sinf uchun) mashg'ulotlarni tashkil qilish va uyushtirilishida dastur materiallari oqilona o'tilmoqda deb o'ylaysizmi? Ha- 48, yo'q- 25%, qisman-20%.

3. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida (1-4 sinf uchun) o'quvchilaringizning har biriga anjomlar (tayoqchalar, gardishlar, koptoklar, va boshqalar) yetarlimi? Ha-17%, yo'q-58%, qisman-25%

4. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida (1-4 sinf uchun) qo'llaniladigan anjomlar o'quvchilaringiz-ning yoshiga (gimnastik devorlar ushlagichi, gardish, oshib va osilib o'tish uchun to'siqlar, sakrash uchun arqonchalar, gantel va toshlar, to'shaklar, turli diametrli to'plar, turnik va brus, arqonli narvonlar, kanat va boshqalar) mos keladimi? Ha-25%, yo'q-65%, qisman-10%

5. Dastur materiallarini (1-4 sinf o'quvchilari) o'zlashtirishda, Davlat meyorlarini va "Alpomish" va "Barchinoy" me'riy testlarini topshirishda qiyinchilikka duch keladimi? Ha-8%, yo'q-70%, qisman-22%.

Natijalar Toshkent shaxri maktablaridan olinib, jismoniy tarbiya o'qituvchilar javoblarini taxlil qilinganda, to'rtinchi ya'ni amaliy mashg'ulotlar jarayonida (1-4 sinf uchun) qo'llaniladigan anjomlar o'quvchilaringizning



1- gistogramma

yoshiga (gimnastik devorlar ushlagichi, gardish, oshib va osilib o'tish uchun to'siqlar, sakrash uchun arqonchalar, gantel va toshlar, to'shaklar, turli diametrlil to'plar, turnik va brus, arqonli narvonlar, kanat va boshqalar) mos keladimi? degan, savolga 70 % jismoniy tarbiya o'qituvchilari mos kelmasligini, 8% i mos kelishini, 22% o'qituvchi esa qisman to'g'ri keladi deb, - javob qaytarganlar. (Tadqiqot natijalari 2-gistogrammada keltirilgan). [4]

Ma'lumki, jismoniy tarbiya mashg'uloti oldiga 2-3 ta muayyan vazifalar qo'yiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tarbiyachi bola-lar fiziologiyasi va psixologiyasini yaxshi bilishi kerak. Shunga asoslangan holda va bolalar yoshini hisobga olib, metodik jihatdan to'g'ri vositalarni, jismoniy mashqlar hamda harakatli o'yinlarni tanlash kerak. Tanlangan mashklar, birinchidan, asosiy harakatlar bilan bog'liq bo'lishi, ikkinchidan, mashqlar bolalar yoshiga, tayyorgarligiga, jinsiga mos bo'lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Usmonxo'jayev T.S., Meliyev X.A. "Bolalarning asosiy harakat faoliyatiga oid mashqlar va ularni o'rgatish uslubi" Uslubiy qo'llanma. T.: 2004.-160 b.
2. Rasulova M va boshqalar "Uch ming yillikning bolasi" Tayanch dastur T.: 2000. -23 b.
3. Maxkamdjonov K.M. Tulenova X.B. va boshqalar Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun umumiy va kengaytirilgan «jismoniy tarbiya» variativ dasturi. T.: 2006. 19 b.
4. Tulenova X.B. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar jismoniy tarbiyasini takomillashtirish": Avtoref. dis. ped.fan.nom. T.: O'zDTI 2001. -22 b.
5. Maxkamdjonov K.M. Yunusova D.S. Raximkulov K.D. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida harakatli o'yinlar va ko'ngil ochar mashqlar" T.: 2016

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада мактабгача ёшдаги болалар ҳамда бошланғич синф ўқувчиларини жисмоний тарбиясини такомиллаштириш масалалари очиб берилган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается совершенствование физическое воспитания в дошкольной возраст и начальной школе.

SUMMARY

The article discusses the improvement of physical education in preschool age and primary grade.

БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ СПОРТ МУРАББИЙ АСОСИДА КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Шарипова Қ.А.

Термиз давлат университети магистратура бўлими Жисмоний тарбия ва спорт маишулотлари назарияси ва методикаси мутахассислиги талабаси

Таянч сўзлар: стабиллашиб бориш, тамойиллар ҳамда услублар, ўқув материаллари, юкламалар таъсирига мослашиш, тўлқинсимон шакллар, тўғри чизиқли, юкламанинг миқдори интенсивлиги.

Ключевые слова: стабилизация, принципы и методы, учебные материалы, адаптация к воздействию нагрузок, волнистые формы, прямые линии, величина интенсивности нагрузки.

Key words: stabilization, principles and methods, teaching materials, adaptation to the effects of loads, wavy shapes, straight lines, the value of the intensity of the load.

Малакали жисмоний тарбия ўқитувчиларини тайёрлаш мақсадида спорт мураббий асосида жисмоний тарбия мутахассисларни касбий фаолиятини шакллантириш ва жисмоний сифатларни такомиллаштириш тадқиқотнинг мақсади ҳисобланади.